XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-13-112-4-62-K/25 Kitob tumani

Kitob tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga va xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-20-218-4-0-K/25-sonli qarori, 2025-yil 29-dekabrdagi Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 01-20-10/01-38/3433-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-20-218-4-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga muvofiq, Kitob tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **153 386 551.0 ming.so‘m** va xarajatlari **153 386 551.0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Kitob tumanining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatgichlari **1-ilova**ga;

Kitob tumanining tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

Kitob tumani mahalliy byudjetidan 2026-yilda byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

2026-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **5-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5.Tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

6. Tumanning tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 299 629.0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun tuman byudjetining zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

7. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga;**

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga;**

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar **9-ilovaga;**

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **10-ilovaga;**

2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **11-ilovaga;**

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **12-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy byudjet prognozlarini inobatga olib, mazkur qarorning 7- va 8-ilovalariga asosan qo‘llaniladigan koeffitsientlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (T.Nasimov), tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Yuldoshev) 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Tuman hokimligi hamda barcha mas’ul tashkilotlar 2026-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Yuldoshev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi Kitob tuman bo‘limi (J.Karimov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Yuldoshev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan

tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Kitob tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM (Y. Isroilov) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Yuldoshev) tumandagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

13. Tuman Ichki ishlar bo’limi (F.Tairov), tuman Adliya bo‘limi (A.Xoliyorov) tumanda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

14. Xalq deputatlari tuman Kengashi, tuman hokimligi hamda mas’ul tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

15. Tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ oluvchilar hamda byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

16. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (N.Ismonov) byudjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

17. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Q.Oqilov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Yuldoshev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Raxmonov) bilan birgalikda hokimlik va hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

18. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvar kundan boshlab kuchga kiradi.

19.Xalq deputatlari Kitob tumani Kegashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Kitob tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-024-4-62-K/24-sonli qarori 2025-yil 31-dekabr kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirirsh va iqtisodiy islohotlar masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi (A.Boboev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari–tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i T.Nasimovlar zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashi raisi **G‘AFUROV RUSTAM ABDIRASULOVICH**

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kitob tumanining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2027-yil	2028-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	X	X	X
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	X	X	X
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	5.6	5.2	4.9
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106.9	107.0	107.6
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104.1	104.4	104.8
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	110.2	112.1	114.2

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Kitob tumanining tuman mahalliy byudjeti daromadlarining
2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Daromad turlari	**Mahalliy reja**
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	6 200 000,0
Aylanmadan olinadigan soliq	11 596 000,0
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 712 290,0
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3 440 000,0
Aksiz solig‘i, jami	5 425 000,0
shu jumladan:	0
- alkogol mahsulotlaridan soliq	*0*
- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*5 425 000,0*
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 164 000,0
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	16 114 000,0
Yuridik shaxslar yer solig‘i	17 347 000,0
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	30 080 261,0
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	14 805 000,0
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 751 000,0,
shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv	*2 636 000,0*

solig‘i		
Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*1 054 000,0*	
Davlat boji	932 000,0	
Jarimalar	1 240 000,0	
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	4 000 000,0	
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0	
Yig‘imlar	400 000,0	
Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	180 000,0	
JAMI		**153 386 551,0**
Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	0	
shundan, tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan	*0*	
HAMMASI		**153 386 551,0**

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Kitob tumani byudjetidan 2026-yilda byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**153 386 551,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	153 386 551,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo`limi**	**43 316 930,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	43 316 930,0
	shundan:	
	"Mening maktabim" dasturi xarajatlari	5 891 000.0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

4	**Madaniyat sohasi bo`limlari**	**8 194 464,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 194 464,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport maktablari**	**7 262 795,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 262 795,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining Kitob tumani bo`limi**	**7 201 435,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 201 435,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi sohasi bo`limlari**	**3 762 500,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 762 500,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari bo`limlari**	**1 203 671,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 203 671,0
	shundan:	

	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bo`limi**	**2 844 720,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 844 720,0
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo`limi**	**1 746 040,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 746 040,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	**129 510,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	129 510,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Hokimiyat**	**48 135 734,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	48 135 734,0
	shundan:	
	Zahira jamg‘armasi	*2 299 629,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*26 745 902,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 998 179,0*

21	**Hokimiyat** (Obodonlashtirish boshqarmasi)	**28 791 136,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	28 791 136,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**797 616,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	797616,0
	shundan:	
	Axborot-kutubxona markazlari	*692 818,0*
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*104 798,0*

Xalq deputatlari Kitob tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Kitob tumanida 2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan			Foyda solig‘i			Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
8	Kitob tumani	0%	20%	100%	80%	0%	27%	100%	73%	100%	100%	0%	0%	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	31%	100%	69%

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	DSB							
8	Kitob tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%



Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda

viloyat byudjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111600 daromad kodiga tushadigan mablag‘lar to‘liq taman va shaharlar byudjetlariga yo‘naltiriladi;

3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha 3141103 daromad kodiga tushgan mablag‘larning *(20 foizi)* to‘liq viloyat byudjetiga yo‘naltiriladi;

4. Jarimalar (3430103), davlat boji (3422103) va yig‘imlar (3422203) bo‘yicha tushumlar to‘liq tegishli tuman va shag‘arlar mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladi;

5. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilan me’yorlarga asosan taqsimlanadi.

6. O‘zbekiston Respublikasning 25.12.2025 yildaga “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonunning 12-moddasi, 4-bandiga binoan viloyat

byudjetiga qoladigan qismi, qo‘shilgan qiymat solig‘i *(20 foiz)* va alkogol mahsulotlari aksiz solig‘i *(30 foiz)*dan tushgan tushumlar 100 foiz miqdorida hisobga olingan.

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Kitob tumani mahalliy byudjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming.so‘mda

Byudjetlar nomi	Daromad	Xarajat
Kitob tumani	153 386 551,0	153 386 551,0

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Kitob tumani 2026-yilda mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Miqdor
Kitob tumani	1 270 665,0

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (ming.so‘m)
1	Kitob tumani	1,20	50 880,0

Izoh: Tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘m)
1	Kitob tumani	1,03	388

Izoh: Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbattan qo‘llaniladigan (*Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli sub’ektlardan tashqari*)	
		Koeffitsent miqdori	Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Kitob tumani	0,95	1 320 500

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
10-ilova

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

Shahar va tumanlar nomi	Bir oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda			
	Binolar:			
	Turar joy		Noturar joy	
	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)
Kitob tumani	1,30	7 670	1,40	16 520

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
11-ilova

2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Soliq kodeksi bo‘yicha 2026-yil uchun belgilangan stavka %	Koeffitsient miqdori	Koeffitsient qo‘llanilganidan keyingi soliq stavkasi %
1	Kitob tumani	0,95	1,00	0,95

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
12-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Tuman va shaharlar nomi	2026 yil koeffitsient miqdori				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.mdan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari
1	Kitob tumani	1,15	1,15	1,15	1,15	1

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
13-ilova

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: ZM68338925

QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOT VA MOLIYA BOSH BOSHQARMASI

THE HEADQUARTERS OF ECONOMY AND FINANCE OF KASHKADARYA REGION

180100 Qarshi shahri A.Navoiy ko‘chasi 8 uy. Telefon: 75-221-16-10 IMBB@exat.uz

29«dekabr»2025 yil. **01-20-10/01-38/3433-son**

Kitob tuman hokimi
R.G‘afurovga

Nusxasi: **Kitob tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga**

Hurmatli Rustam Abdirasulovich !

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni bilan hamda Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-20-218-4-0-K/25-son qarori bilan 2026-yil budjet parametrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Xususan, qarorning 5-ilovasida Kitob tuman mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **153,4 mlrd.so‘m,** xarajatlari **153,4 mlrd.so‘m** miqdorda ma’lumot uchun qabul qilingan.

Shuningdek, Kitob tuman mahalliy budjetining 2026-yil uchun aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1,3 mlrd.so‘m** miqdorida belgilash yuzasidan Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining qarori loyihasida nazarda tutilmoqda.

Sizdan qisqa muddatda 2026-yilgi Kitob tuman mahalliy budjeti loyihasini xalq deputatlari tuman Kengashiga tasdiqlash uchun qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirishingizni so‘raymiz.

Bosh boshqarma boshlig‘ining birinchi o’rinbosari: **A.Berdiyev**

Xalq deputatlari Kitob tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-112-4-62-K/25 -son qaroriga
14-ilova

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining qaroriga

H U Q U Q I Y X U L O S A

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining ushbu Kitob tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori loyihasi O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga va xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-20-218-4-0-K/25-sonli qarori, 2025-yil 29-dekabrdagi Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 01-20-10/01-38/3433-sonli xati talabari asosida tayorlangan.

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining ushbu qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to‘liq javob beradi.

Xalq deputatlari Kitob tuman Kengashining ushbu Kitob tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori loyihasi 2025 yil 19 noyabr kuni interaktiv portaliga muhokama uchun kiritilgan edi(ID 110967). 2025 yil 04 dekabr kuni interaktiv portalda muhokama muddati tugaganligi sababli Kitob tuman Adliya bo‘limiga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun yuboriladi.
Cheklist ilova qilinadi.

Kitob tuman hokimligi Bosh yuriskonsulti A.O.Omonov